

Ingliz Va O'zbek Tillarida Qo'shma So'zlarning Derivatsiyasining Kognitiv Xususiyatlari

N. Umarova¹ S. Inomjonova²

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlarning derivatsiyasining qiyosiy tahlili, lug'aviy ma'nosi o'z aksini topgan. Undan tashqari qo'shma so'zlarning xususiyatlarini kognitiv modellar bilan ifodalangan, ularning farqi va o'xshash tomonlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv model, konsept, leksema, komponent, kognitiv asos, refleksiv va simmetrik munosabat, kategoriya va freym.

Qo'shma so'zlar nafaqat kognitiv lingvistika asosida tasniflanadi balki qiyosiy tilshunoslikda ularning foydalanish tendensiyalari solishtiriladi. Qo'shma so'z- bu til birligi, ikki yoki undan ortiq so'z yoki komponentlardan iborat bo'ladi. Eng ko'p ishlatiladigan qo'shma so'zlar ingliz tilidagi qo'shma otlar (*cheeseburger*), qo'shma fe'llar (*waterproof the deck*), qo'shma sifatlar (*red-hot*). Lekin o'zbek tilida ko'proq qo'shma otlar (*belkurak*) va qo'shma fe'llar (*so'tib oldi*) kabilardan foydalaniladi.

Qo'shma so'zlar yasalishi uchun asos bo'lgan so'zlar o'zlarining dastlabki ma'nosini qisman yoki butunlay yo'qotadi va ular birgalikda tamoman yangi lug'aviy ma'no bildiradi. Chunonchi, o'zbek tilidagi *echki* va *soqol* so'zlari alohida leksemalar sifatida o'zlarining lug'aviy ma'nosiga ega. Lekin ularning qo'shilishidan yangi qo'shma so'z hosil bo'ladi va ma'nosi qisman o'zgaradi. Bu so'z hayvon bilan tana qismi konseptlarning umumlashmasidan yasalgan. Ingliz tilida ham shunday qo'shma so'zlarni uchratishimiz mumkin. Masalan: *fish (baliq)* va *bowl (idish)* bu so'zlarning ikkalasi ham bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Hayvon va narsa konseptlarining birikishi natijasida *fishbowl* kabi qisman farq qiluvchi semalar natijasi yaqqol nomoyon bo'ladi. Yuqoridagi o'zbek va ingliz tillaridagi bu qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyati shundan iboratki, inson ongli, ba'zi hollarda mantiqiy tomondan so'zlarni birlashtirib qo'shma so'zlarni yaratgan. Shuning uchun, har bir qo'shma so'zda ikkita konsept bitta kognitiv asos yotadi. Qo'shma so'zlarni kognitiv jihatini yoritish uchun esa bizga bir emas, eng kamida ikkita yoki undan ham ko'proq bir modelga kiruvchi qo'shma so'zlar zarurdir.

Ingliz va o'zbek tillarida *hayvon + tana qismi = o'simlik nomi* kabi kognitiv modelni uchratishimiz mumkin, lekin ikkala tilda ham bu model kam ishlatiladi. Demak, o'zbek tilida bu modelga kiradigan qo'shma so'zlarni kognitiv xususiyatlarini ko'rib chiqsak; *otquloq, laylaktumshuq, qo'ziqorin*. O'zbek tilidagi *otquloq* qo'shma so'zi – torondoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simlik. Ildizi o'q ildiz, yo'g'on, poyasi ko'p qirrali, bo'g'imli yuqori qismi kamshox. Demak, bundan tushunishimiz mumkinki, bu qo'shma so'z o'simlik konseptiga tegishlidir. Bu so'zning kognitiv modeli " hayvon + tana qismi = o'simlik " tarzida chizilgan. Chunki, qo'shma so'zning kognitiv xususiyati shundaki, bu o'simlik turi otning qulog'iga o'xshaydi. Ya'ni insonning ongida otning qulog'iga o'xshatish degan freymlar to'ri to'plami mavjud bo'lgan va idrok faoliyati va bilimiga tayanib bu o'simlikni otquloq deb nomlagan.

Yuqoridagi, *qo'zi, ot, laylak* hayvon konseptining kognitiv asosi bo'lib, ularning ikkinchi qismi tumshuq, qorin, tana konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Ingliz tilida bunday ko'rinishdagi kognitiv modelni topa olmaymiz.

Lekin o'zbek tilidan farqli jihati, ingliz tilida *rang + narsa = o'simlik nomi* kabi kognitiv modellar mavjud. Bu model ko'p foydalanmaydigan ya'ni non-produktiv usul sanaladi. Chunki, o'simlik

¹ senior teacher, Ferghana state university

² master's degree student, Ferghana state university



nomlari ranglar bilan nomlanishi nafaqat ma'lum bir maxsus sohada balki kundalik hayotda ham rang bilan uyg'un holda aytilishi tufayli produktiv holatini kamaytiradi. Masalan: *Yellowwood, Greensleeve Rose, Red Star Gladiolus*. Bu qo'shma so'zlarning birinchi qismi green (yashil), red (qizil), yellow (sariq) kabi ranglar, ikkinch qismda wood (o'tin), sleeve (yeng), star (yulduz) nomlari konseptning kognitiv modeli hisoblanadi. Bu ko'rinishda aytiladigan o'simliklarning kognitiv asosi rangi hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlardan ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilidagi qo'shma so'zlarga refleksiv munosabat orqali yonashilgan. Misol uchun: laylaktumshuq, o'simligi laylaning tumshuq qismiga o'xshaganligi uchun shunday nomlangan.

Ingliz tilidagi qo'shma so'zlar esa simmetrik munosabat tufayli yaratilgan ya'ni Greensleeve Rose gulini olsak. Gulning rangi yashil va shakli yeng qismga o'xshaydi, bu o'xshashlik doim bir xilda saqlanadi.

Bizga ma'lumki, qo'shma so'zlar har xil so'z turkumidan qo'shma otlar, qo'shma sifatlar, qo'shma fe'llar yasaldi. Qo'shma ot turkumi – qo'shma ot so'z bo'lib, u orqali yasaladi. Shuning uchun qo'shma so'zlarning qaysi so'z turkumidan yasalishiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Asosan ingliz tilidagi va o'zbek tilida qo'shma otlar o'zgartirilgan otlar, fe'llar yoki sifatlar orqali yasaladi ot birikmasining tuzilishiga ba'zi misollar so'zlar va ularning toifalari quyida keltirilgan.

Ingliz tilidagi qo'shma otlarning so'z turkumlaridan yasalishi;

Ot+ Ot =Ot	Sifat +Ot= Ot	Fe'l + Ot = Ot	Predlog + Ot= Ot
Chairperson	Blue pencil	Swimming pool	By stander
Airplane	Hotdog	Sewing mashine	In service
Ballpark	Ice cream	Stingray	Off spring
Antfarm	Lighthouse	Kickball	Over fed

O'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning so'z turkumlaridan yasalishi:

Ot+ Ot =Ot	Sifat + Ot =Ot	Ot = Fe'l = Ot	Son +Ot =Ot
Tokqaychi	Sho'rdanak	Kelintushdi	Sakkizoyoq
Qo'yko'z	Achchiqtosh	Kitobsevar	Beshbarmoq
Suvilon	Qizilqum	Dunyoqarash	Uchburchak
Tog'olcha	Ko'k ko'z	Go'shtkuyar	Qirqqiz

Yuqorida keltirilgan jadvallardagi misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki, ot, sifat va tartibi o'zgarsa ham fe'l so'z turkumlaridan ikki tilda ham qo'shma so'z yasash mumkin, lekin ularning yasalishida predloqlar bilan o'zbek tilida ot so'z turkumiga kiruvchi qo'shma so'z yasalmas ekan, shuningdek, ingliz tilida son so'z turkumi bilan qo'shma so'zlar yasalishi mumkin. Misol uchun; *five –star hotel*.

Xulosa qiladigan bo'lsak ingliz tili va o'zbek tilida qoshma so'zlarni kognitiv modellar orqali ko'ramizmi yoki ularni kategoriyalarga bo'lib o'rganamizmi, biz qanchalik uni chuqurroq o'rganishga kirishsak ikki til o'rtasida qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari, o'xshash va farqli tomonlar kelib chiqaveradi. Qo'shma so'zlarning tadqiqoti nafaqat bu ikki tilda balki boshqa tillarda ham qo'shma so'zlar va ma'nolar o'rtasidagi kognitiv aloqa haligacha chuqurroq o'rganilib va tahlil qilib kelinmoqda. Ingliz va o'zbek tilshunosligidagi muhim, zamonaviy va global hodisa bu qo'shma so'zlar tahlilida til va ong o'rtasidagi bog'liqligini ochib beruvchi kognitiv modellarning konseptual xilma-xilligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ақобиров С.Ф., Михайлов Г.Н. Узбекско–русский словарь. – Т.: Гл. ред. Узб. сов. энциклопедии, 1988. – 726 с.
2. Алтаева А.Ш. Сложные слова в современном русском языке: Морфемная система и словообразовательная структура: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алматы, 2004. – 27 с.



3. Бортничук Е.Н. Словообразование в современном английском языке. – Киев: Высш. шк., 1988. – 264 с.
4. Буранов Дж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высш. шк., 1983. – 267 с.
5. Фуломов А., Кўнғуров Р., Тихонов А. Ўзбек тилининг морфем луғати.– Тошкент: Ўқитувчи, 1977.–461 б.
6. Гулямов А. О правописании сложных слов в современном узбекском языке//Ўзбек тили ва адабиёти – Т., 1953. – С. 14–16. Ибрагимходжаев И.И. Сложение как способ образования новых и окказиональных слов в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1979. – 25 с.
7. Левина Т.В. Эволюция акцентной нормы сложных слов английского языка в XX веке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.; 2001. – 24 с.
8. Мадалиев Б. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма сўзлар//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1966. – Б. 104.
9. [http: // www. dissertation.com](http://www.dissertation.com).

